

## OILADAGI IJTIMOIIY NIZOLARNI PSIXOLOGIK O‘RGANISH VA ULARNI BARTARAF ETISH

***Boboyorova Malika Kamoliddin qizi***

*Jizzax viloyati Jizzax shahar MMTBga qarashli*

*23-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oiladagi nizolarni o‘rganish va ularni ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish orqali bartaraf etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘lar:** oila, tarbiya, ma‘naviyat, ijtimoiy tasavvur, steriotip, oilaviy qadriyat, ijtimoiy rol.

Bugungi kunda O‘zbekiston sharoitida oilaviy muammolar o‘zining ko‘p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma‘nan barkamol, ruhan sog‘lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o‘z muammolarini bahamjihatlik bilan, o‘zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma‘naviy asoslari mustahkam bo‘ladi. Alohida ta‘kidlash joizki, oilada ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarida, fikrlar va qarashlaridagi paydo bo‘ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o‘zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo‘lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma‘naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to‘g‘risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko‘tariladi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidek kechavermaydi. Uy-ro‘zg‘or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to‘qnashadi, ayrim holatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda oila va undagi o‘zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo‘lgan ma‘lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni xududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘rganish zarur. Ta‘kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-

Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O‘zbekiston olimlari M.G. Davletshin, G‘.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G‘. G‘oziyev, Sh.R. Barotov, B.M. Umarov boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi nizoli holatlar, munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta’sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan qisman o‘rganilgan. Ma’lumki, oilaning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni va oilaviy o‘zaro munosabat oqibatlari masalasi psixolog hamda pedagog olimlarning diqqat markazida turgan muammolardan biridir. Bu muammoga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar esa, asosan, har bir millat mentaliteti, o‘sha jamiyatda ustuvor bo‘lgan oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar doirasida turli tadqiqotlarning predmeti bo‘lib kelgan. Zero, oilada kamol topayotgan yosh avlod dunyoqarashining to‘g‘ri shakllanishi oila a‘zolari o‘rtasida barqaror bo‘lgan sog‘lom munosabatlarning xarakteriga bog‘liq. Bu esa, bola ongida ijobiy va salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlari to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishiga zamin bo‘ladi. Ijtimoiy tasavvurlar doirasidagi oilaviy nizolar muammosining o‘rganilishi jarayonida, asosan, er-xotin (ota-ona) o‘rtasidagi munosabatlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki oila muhiti muvozanatini ota-ona saqlab turadi. Tarbiyasi og‘ir bolalar va ular bilan ishlash har doim psixologlarning diqqat markazida bo‘lgan. Nima qilish kerak, ta’limga mos kelmaydigan, tajovuzkorlik, hissiy beqarorlik, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, o‘rganishni istamaslik, o‘rganishga qiziqish yo‘qligi, maktab motivatsiyasi past bo‘lgan bolalar bilan qanday ishlash kerak? Psixologning qiyinchiliklarni, ularning sabablarini aniqlash va ushbu guruh bolalariga psixologik yordam ko‘rsatishdagi roli zamonaviy dunyoda juda dolzarb va muhimdir. Maktab psixologlari oldida turgan vazifalar maktabda o‘quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradigan qulay psixologik muhitni yaratishdir. Maktab psixologi ko‘pincha boshqa bolalardan sezilarli darajada farq qiladigan (minus belgisi bilan) bolalar bilan shug‘ullanishi kerak. Psixologga u yoki bu tarbiyasi og‘ir bolaga "qandaydir tarzda ta'sir qilish" haqidagi so‘rov o‘qituvchilar va otaonalarning tez-tez so‘rovlaridan biridir. Shu bilan birga, turli xil maktab o‘quvchilari tarbiyasi og‘ir toifasiga kiradi: o‘qimagan, intizomsiz, turli xil asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar, voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyada ro‘yxatga olingan o‘spirinlar, disfunktsiyali va yolg‘iz bolalar deb ataladigan bolalar.

Oila borasidagi ilmiy izlanishlardan yana shu narsa ma’lumki, oilaviy nizolarning asosiy qismi er-xotin o‘rtasidagi nizolardan tashkil topadi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya sohasida er-xotin o‘rtasidagi nizolar, ularning kelib chiqishi va ushbu oilada tarbiyalanayotgan farzandlar dunyoqarashi, fe‘l-atvoriga ta’siri hamisha dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Shu boisdan bu muammoni o‘rganish uchun qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ularning natijalari keng kitobxonlar ommasiga havola

etilgan. Shaxsning oilaviy nizolar to‘g‘risidagi bilimlari, uning shaxsiy tajribasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tasavvurlar tizimining shakllanishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. U yoki bu obekt yoxud hodisa haqida bilimning yo‘qligi, tasavvurning ham yo‘qligidan darak beradi. Shaxsgacha yetib kelayotgan ma‘lumotlar va ular asosida shakllanayotgan bilimlar aniq yoki noaniq, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lib, biror narsa va hodisalar vositasida shakllanadi hamda bu bevosita ta‘sir bo‘lgani uchun ham tasavvurlar ana shunga muvofiq tegishli zaylda paydo bo‘ladi. Yangi davr ingliz demokrati va fransuz ma‘rifatparvarlaridan D. Pristli, Sh. Monteske, D. Didro, J. Russo, Volterlar nizolarni ko‘proq salbiy jarayon sifatida baholashgan. Ulardan tashqari, I. Kant, T. Gobss, Gegel, T. Maltus, Ch. Darwin, G. Spenser, U. Samner, L. Gumplovich, G. Zimmel, R. Park kabi psixolog, sotsiolog, faylasuf, iqtisodchi olimlarning asarlarida ham oilaviy nizolar to‘g‘risida bevosita jamiyat miqyosida, siyosiy jarayonlar doirasida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, o‘z navbatida tadqiqot predmetini aniqlash va umumiy xulosalar chiqarish jarayonida muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

XX asrning boshida Amerikada o‘tkazilgan qator izlanishlar asosida, bola ijtimoiylashuvi jarayonida otaning o‘rniga xos bo‘lgan quyidagi umumiy sifatlar qayd etildi:

1. Otasiz bolalar sonining ortib borayotganligi, oilada otaning kam bo‘lishi;
2. Ota bilan bola o‘rtasidagi muloqotning onanikiga nisbatan sezilarli darajada kamligi;
3. Pedagogik nuqtayi nazardan otalarning bilimsizligi, malakasizligi;
4. Bolaga, ayniqsa, kichik yoshlilarga g‘amxo‘rlik qilish malakasining otalarda kamligi va unga bo‘lgan sovuqqon munosabat, layoqatsizlik.

Shunday qilib, tadqiqot ishimizdagi oilaviy nizolar bilan bog‘liq tasavvurlarning shakllanishini tushunishimizda metodologik asos bo‘lib, G‘arb mamlakatlarida, birinchi navbatda Fransiya hamda Rossiyada taklif etilgan “ijtimoiy tasavvurlar” va “subyektiv obrazlar” haqidagi nazariyalar xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasining G‘arbdagi asoschisi hisoblangan S. Moscovici, unga quyidagicha ta‘rif bergan edi: “Ijtimoiy tasavvurlar bixevioristlar ta‘riflagan mexanik obraz ham, tashqi va ichki muhit o‘rtasida ziddiyat tug‘diradigan narsa ham bo‘lmay, balki faol ravishda obyektiv borliqni ijtimoiy-psixologik tarzda qayta o‘zlashtirish jarayoni mahsulidir”.

Fikrimizcha, o‘smirlardagi nizolar to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning dinamik tabiatini tahlil qilish uchun, ularning shakllanish bosqichlarini quyidagicha ajratish maqsadga muvofiqdir: Idrok qilish bosqichi, unda ongda bevosita aks etadigan ma‘lumotlarning qabul qilinishi va o‘smir (o‘g‘il, qiz)lar uchun ahamiyatliligi nuqtayi nazaridan saralanishi ro‘y beradi. Masalan, oilaviy rollar taqsimoti va uning bajaralishi yuzasidan o‘smir xatti-harakatidagi oila “lider”iga nisbatan anglanmagan intilish. Assotsiativ bog‘lanishlar bosqichi, bunda ongda yangi xabarlar eskilari bilan

solishtirilib, assotsiativ va ma'naviy bog'lanishlar o'rnatiladi. Masalan, erning o'z xotiniga (yoki aksincha) nisbatan ko'rsatadigan har qanday salbiy munosabati o'smirni oilaning ideal "lider"iga nisbatan pozitsiyasini o'zgartirishga majbur qiladi. Yuqoridagi ikki bosqich xususiyatlarining umumlashtirilishi – obyekt haqidagi tasavvurlarning generalizatsiyasini keltirib chiqaradi. Ya'ni, yuzaga kelgan oilaviy nizolar ta'sirida o'smir ota-onasi xususidagi ijtimoiy tasavvurlarini tubdan isloh etadi. Natijada, oilaga doir har bir ma'lumot yoki xabar differensial holda o'smir uchun ahamiyatlilik darajasida ajratiladi va shu asosda ma'lum ustanovkalar shaklida uning xulq-atvori yo'nalishini belgilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar muammosining psixologiya fanida o'rganilishi bizga yana bir karra oilada bo'ladigan turli ko'rinishdagi nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar eng avvalo, oila muhitida va undagi ota-ona hamda ularning o'z ota-onalik rollariga bo'lgan munosabatlar ta'sirida shakllanishini isbotladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ahrorova S.A. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari. Falsafa fan. nom. diss. Avtoref. – T.: O'zMU, 2005, – 24 b.
2. Safarova K. O'z nasl-nasabingni unutmang. // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. 2002, 4-son, 122–125-betlar.
3. Umarova M. Shaxs va ijtimoiylik. // Tafakkur, 2000, 4-son, 83–84-betlar.